



FARG'ONA VILOYATI O'ZBEKISTON TUMANI HOKIMINING Q A R O R I

2023 - yil 15 - fevral

43-11-161-Q/23

O'zbekiston tuman hokimligi

Tumandagi “Alisher Navoiy” nomli madaniyat va istirohat bog'ini ma'muriy binosini buzish, o'rnida va bo'sh yer maydonida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo'llagan xususiy sherikka berish bo'yicha o'tkazilgan tanlov yakuni to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi 2019-yil 10-may kungi “Davlat xususiy-sherikchilik to'g'risida”gi O'RQ-537-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvar kungi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-104-sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-apreldagi “Davlat xususiy-sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to'g'risida”gi 259-sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-avgustdagagi “Istirohat bog'lari va yashil zonalarni tashkil etish metodologiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 671-sonli qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 7-iyun kuni “Xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash hamda daromadlarini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 47-sonli yig'ilish bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O'zbekiston tuman Yaypan shahri markazida joylashgan tuman hokimligi balansidagi “Alisher Navoiy” nomli madaniyat va istirohat bog'ini 214.20 kv.m yer maydonidagi ma'muriy binosi va unga tutash 0.06 ga jami: 814.20 kv.m yer maydonida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo'llagan xususiy sherikka berish bo'yicha tanlov komissiyasining 2023-yil 13-fevral kungi xulosasi tasdiqlansin.

2. Tuman xokimligi balansidagi “Alisher Navoiy” nomli madaniyat va

istirohat bog'ini 214.20 kv.m yer maydonidagi ma'muriy binosi va unga tutash 0.06 ga jami: 814.20 kv.m yer maydonida "Yaypan avtoshoxbekat" MChJ tomonidan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida 1 yil muddat ichida loyiha taklifiga asosan 7 qavatli bino qurilishi, 1 qavatda "Umumiy savdo maydoni", 2 qavatda "Ovqatlanish va zamonaviy bolalar ko'ngil ochar maskani", qolgan qavatlarida mehmonxona binosi, davlat sherigi uchun 3 qavatli bino 1 qavatida "Ma'muriy bino" 2 qavatda kutubxona 3 qavatda "Tadbirkorlar markazi" qurish, avtoturargoh, tashqi bolalar maydonchasi qurilishiga 11 mlrd 250 mln.so'm investitsiya kiritilishi hamda 37 nafar yangi ish o'rnlari yaratilishi yuzasidan bergen loyiha taklifi va ko'rsatgichlar tanlov komissiyasining xulosasiga asosan "Yaypan Elite House" MChJ xamda "Apelsin Food Product" MChJ taqdim etgan ko'rsatgichlardan yuqori bo'lganligi sababli "Yaypan avtoshoxbekat" MChJ tanlov g'olib deb topilsin.

3. "Yaypan avtoshoxbekat" MChJ rahbari Y. Mannonovga:

Davlat xizmatlari markazi orqali arxitektura rejallashtirish topshirig'i ishlab chiqish uchun buyurtmalar berilsin hamda loyiha-smeta hujjatlari tayyorlash uchun lisenziyaga ega loyiha tashkiloti bilan o'rnatilgan tartibda shartnomaga tuzish;

loyihalash uchun yer osti muhandislik inshootlarining ijro surati tushirilgan 1:500 nisbatdagi topografik xarita va geologik xulosa ishlab chiqish uchun litsenziyaga ega korxonasiga buyurtma berish;

Davlat arxitektura va qurilish nazorati inspeksiyasiga xabarnoma yuborish;

mazkur hududda joylashgan muhandislik tarmoqlarini ko'chirish yoki muhofaza hududini saqlab qolish ishlarini o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi hamda xozirda "Ma'muriy bino" dan vaqtincha foydalanib kelayotgan 3 nafar tadbirkorlarga imtiyozli ravishda ijara huquqi asosida savdo joyi bilan ta'minlash, 1 yil muddat ichida majburiyatlarni bajarish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimi o'rribosarlari Sh.Ismoilov xamda O.Kurbanovlarga:

tanlov hujjatlari hamda ushbu qarorga asosan "Yaypan avtoshoxbekat" MChJ hamda tuman hokimligi o'rtasida belgilangan tartibda 3 nusxada shartnomaga rasmiylashtirish va nazorat qilish vazifasi yuklansin.

5.Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari D.Jabborovga:

tanlov yakunlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari va tuman hokimligi rasmiy veb-saytida yoritish vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o`rinbosarlari X.Alijonov va Sh.Ismoilovlar zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Ш.Юлдашев